

O'ZBEKISTONDA ISHSIZLIK DARAJASINI KAMAYTIRISH: MUAMMOLAR VA YECHIMLAR

Xaydarova Sitora Suranbay qizi ¹

² Assistant, Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti

Xasanxo'jayev Akromxo'ja ²

Mahmudov Muhammadali ³

²³ Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti talabalari

MAQOLA MALUMOTI

ANNOTATSIYA:

MAQOLA TARIXI:

Received: 21.03.2025

Revised: 22.03.2025

Accepted: 23.03.2025

KALIT SO'ZLAR:

Ishsizlik, mehnat
bozori, friksion ishsizlik,
tarkibiy ishsizlik,
bandlik, iqtisodiy
rivojlanish, texnologik
o'zgarishlar,
demografik omillar,
ta'lim tizimi, yangi ish
o'rinlari.

Mazkur maqolada O'zbekistonda ishsizlik darajasi va uning asosiy sabablari tahlil qilinadi. Ishsizlik turlari – friksion va tarkibiy ishsizlik tushunchalari ochib berilib, ularga ta'sir etuvchi omillar ko'rib chiqiladi. Shuningdek, ishsizlikni kamaytirish bo'yicha amalga oshirilayotgan davlat dasturlari, bandlikni oshirish strategiyalari va ta'lim tizimidagi islohotlar haqida ma'lumot berilgan. Maqolada ishsizlik darajasini pasaytirishning ahamiyati va uning mamlakat iqtisodiyotiga ta'siri ham muhokama qilingan.

KIRISH. Ishsizlar – bu mehnatga layoqatli bo'lib, ishlashni xohlagan, lekin ish bilan ta'minlanmaganlardir. Ishsizlik kelib chiqishining asosiy sababi – ishchi kuchi (mehnat)ning aniq bozorida taklifning unga bo'lgan talabdan ortib ketishi va buning natijasida iqtisodiy faol aholi bir qismining ish bilan ta'minlanmasligidir.¹O'zbekiston Respublikasining

¹ T. T. Jo'rayev, M. A. Hamdamov. Iqtisodiyot nazariyasi. (Darslik). «Fan va texnologiyalar nashriyot-matbaa uyi», 2024

«Aholini ish bilan ta'minlash to'g'risida»gi Qonuniga binoan ishsiz shaxs deb, mehnatga qobiliyatli (o'n olti yoshdan boshlab to'g'risida) pensiya bilan ta'minlanish huquqini olgunga qadar), ishga va ish haqiga (mehnat daromadiga) ega bo'lmagan, ish qidiruvchi shaxs sifatida mahalliy mehnat organida ro'yxatga olingan, mehnat qilishga, kasbga tayyorlash va qayta tayyorlashdan o'tishga, malakasini oshirishga tayyor mehnatga qobiliyatli shaxslar e'tirof etiladi.² Ushbu ta'rifga ko'ra, ishsiz shaxs quyidagi mezonlarga javob berishi kerak: 1. Mehnatga layoqatli bo'lishi – ya'ni jismonan va aqlan mehnat qilish qobiliyatiga ega bo'lishi kerak. 2. Ishga va mehnat daromadiga ega bo'lmashligi – ya'ni doimiy ish joyiga ega emasligi va barqaror daromad manbaiga ega emasligi lozim. 3. Ish qidirishi – faol ravishda ish qidirayotgan bo'lishi va mahalliy mehnat organida ro'yxatga olingan bo'lishi kerak. 4. Ishga tayyor bo'lishi – kasb-hunar o'rganish, qayta tayyorlanish yoki malaka oshirishga tayyorligi muhim ahamiyatga ega. Ishsizlik va u bilan bog'liq muammolar mehnat bozoridagi ijtimoiy-iqtisodiy mehnat munosabatlarining asosiy mazmunini tashkil qiladi. Ishsizlik muammosini o'rganishdan asosiy maqsad aholining ish bilan bandligini yaxshilash orqali mamlakat ishlab chiqarishini kengaytirish va aholi turmush darajasini yanada yaxshilashga aloqador tadbirlar ishlab chiqishdan iborat. Jamiyatdagi ishsizlik darajasini pasaytirish uchun qo'shimcha ishchi o'rinlarini yaratish, ularni ishga tushirish aholining tabiiy o'sishidan oraqada qolmasligi kerak.³ So'nggi yillarda mamlakatimizda mehnat bozorini yaxshilash, bandlikni oshirish va ishsizlik darajasini pasaytirish bo'yicha keng ko'lamli islohotlar amalga oshirilmoqda. Ishsizlikning kamaytirilishi mamlakatning iqtisodiy o'sishi, ijtimoiy barqarorlik va aholi turmush darajasining oshishiga bevosita ta'sir ko'rsatadi. Biroq, hanzugacha ayrim hududlarda va sohalarida ishsizlik darajasi muammo bo'lib qolmoqda.

² O'zbekiston Respublikasining "Aholini ish bilan ta'minlash to'g'risida"gi Qonuni (Yangi tahriri) Toshkent, 1998 y.

³ Musurmankulova, G. (2024). O'ZBEKISTONDA ISHSIZLIKNI KAMAYTIRISH YO'LLARI. B TAFU (T. 4, Выпуск 7, ss. 550–554). Zenodo



1-rasm. O'zbekistonda ishsizlik darajasi (2020-2023 yillar)⁴

Bugungi kunda O'zbekistonda ishsizlik darajasi kamayib borayotgani yaqqol aks etyapti. Jumladan, O'zbekistonda 2022-yilda Iqtisodiy faol aholi qismini

15 139 100 kishi va ish bilan band aholini esa 13 835 900 kishi tashkil etgan. Bu ko'rsatkich bo'yicha ishsizlik darajasi 8.6% ni tashkil etib, bu bilan 2021-yilga qaraganda 0,7% ga kamaygan. Ammo bu ko'rsatkich normal darajadan ancha yuqori hisoblanadi. Mamlakat miqyosida 3—5% darajasidagi ishsizlik, iqtisodiyot uchun normal holat (Ishsizlikning tabiiy chegarasi) hisoblanadi.[5] chunki freksion va tarkibiy ishsizlik tarkibini o'zgartirish ilojisiz bo'lganligi hisobidan. **Friksion ishsizlikka** yangi joyga ko'chib o'tishi natijasida asosiy ish joyini vaqtincha yo'qotgan, lekin faol ish qidirayotganlar kiradi. Bularga quyidagilarni kiritish mumkin:

- o'z xohishi bilan ish joyini o'zgartirganlar;
- ishdan bo'shatilganligi tufayli yangi ish joyi qidirayotganlar;

⁴ Muallif tomonida <https://siat.stat.uz/reports-filed/1875/table-data> foydalanib yaratildi

- vaqtinchalik ish joyini yo'qotganlar;
- birinchi marta ishga joylashish uchun ish qidirib yurgan yoshlar.

Tarkibiy ishsizlik – iste'molchi talabi va texnologiyadagi o'zgarishlar oqibati hisoblangan tarkibiy o'zgarishlar natijasida kelib chiqadi. Tarkibiy ishsizlar maxsus tayyorgarlik qilmasdan, yangi ish turiga ko'nikma hosil qilmasdan ish topa olmaydilar. Friksion ishsizlik qisqa muddatli tavsifga ega bo'lsa, tarkibiy ishsizlik esa uzoq muddatga cho'zilib jiddiy ijtimoiy muammolarni keltirib chiqarishi mumkin.⁵

Umumiy jihatdan O'zbekistonda ishsizlik darajasiga ta'sir ko'rsatayotgan ayrim sabablarni keltirib o'tamiz.

Demografik omillar

Mamlakatda to'la ish bilan bandlikka erishib bo'lmaydi, davriy ishsizlik darajasi nolga teng bo'lganda ham, tarkibiy va freksion ishsizlikda ma'lum bir raqamlar qayd etib turiladi, bu mamlakat bo'yicha ishsizlikning tabiiy darajasi hisoblanadi. Friksion ishsizlik o'z kasbini o'zgartirgan va o'z kasbini mutaxassisi bo'lishini kutayotgan mehnatga layoqatli aholi hisoblanadi, bu asosan qisqa davrda sodir bo'ladi. Hozirgi vaqtda O'zbekistonda ishsizlikning tabiiy darajasiga talabalarning soni yetarlicha hissa qo'shmoqda. Statistika agentligining axborotiga ko'ra, 2022-yil O'zbekistonda 1 040 400 talaba oliy o'quv yurtlarida tahsil olayotganligi bayon etilgan.

Bu ko'rsatkich O'zbekistonda Friksion ishsizlik bo'yicha ishsizlikning tabiiy darajasiga 6.9% ulush qo'shmoqda. Shuningdek, mamlakatda ishlab chiqarish hajmini va samaradorligini oshirish maqsadida yangi texnologiyaga asoslangan ishlab chiqarishga o'tilayapti, bu butun bir sohaga ishchi kuchini va shu soha uchun zarur bo'lgan mehnat resursiga talabni qisqartiradi. Bu o'z-o'zidan ish bilan band bo'lganlarni ishidan mahrum bo'lishiga olib keladi. Bunda ishsiz qolganlar ma'lum bir yangi ko'nikma va tajriba uchun o'qitilishlari talab etiladi va jarayon uzoq davrni talab etadi. Bu jarayonda strukturaviy ishsizlik yuzaga keladi. O'zbekiston rivojlanayotgan mamlakat bo'lganligi sababli, tarkibiy ishsizlik darajasi tabiiy ishsizlikka qo'shayotgan hissasi juda kam hisoblanadi. Shu jumladan, hozirda O'zbekistonda ishlab chiqarishda yoki iqtisodiyotda inson

⁵ T. T. Jo'rayev, M. A. Hamdamov. Iqtisodiyot nazariyasi. (Darslik). «Fan va texnologiyalar nashriyot-matbaa uyi», 2024

resurs(kapital)idan foydalanish ishlab chiqarishning katta ulushini egallaydi, bu ko'rsatkich qishloq xo'jaligi sanoatida qariyb 95% ga teng.⁶

Texnologik o'zgarishlar

So'nggi yillarda dunyo iqtisodiyotida texnologik taraqqiyot mehnat bozorida sezilarli o'zgarishlarni keltirib chiqarmoqda. Sun'iy intellekt (AI), avtomatlashtirish va robototexnika kabi texnologiyalar ko'plab sohalarida inson mehnatini qisqartirishga olib kelmoqda. O'zbekistonda ham bu jarayon mehnat bozoriga ta'sir ko'rsatmoqda va yangi ish o'rinlari yaratish bilan birga, ba'zi kasblarning yo'qolishiga sabab bo'lmoqda.

Ko'plab korxonalar ishlab chiqarish jarayonlarini avtomatlashtirib, inson mehnatiga bo'lgan ehtiyojni kamaytirmoqda. Masalan, sanoat ishlab chiqarishida zamonaviy robotlashtirilgan liniyalar an'anaviy ishchilarning o'rnini bosmoqda. Xizmat ko'rsatish sohasida ham avtomatlashtirish keng tarqalmoqda. Masalan, banklarda o'z-o'ziga xizmat ko'rsatish terminallari va onlayn bank tizimlari odatiy kassir va operatorlarning sonini qisqartirishga olib kelmoqda.

Sun'iy intellekt yordamida avtomatlashtirilgan dasturlar ba'zi kasblarni yo'qotish xavfini tug'diradi. Masalan, tarjimonlar, ma'murlar va ba'zi yuristik xizmatlari AI orqali amalga oshirilishi mumkin bo'lgan kasblarga aylanmoqda. O'zbekistonning moliya, tibbiyot va marketing sohalarida AI ishlatilishi tobora kengaymoqda, bu esa ayrim kasblarni qayta o'ylab chiqishga majbur qiladi.

Raqamli texnologiyalar tez rivojlanayotgan bo'lsa-da, aholining katta qismi hali ham ularga to'liq moslasha olmayapti. Ko'plab ishchilar yangi kasbiy ko'nikmalarni egallashda qiyinchiliklarga duch kelmoqda, bu esa texnologik ishsizlikni keltirib chiqarishi mumkin.

Mehnat bozoridagi mintaqaviy farqlar va ishsizlik

O'zbekistonda ishsizlikning asosiy muammolaridan biri mintaqaviy farqlarning mavjudligidir. Mamlakat hududlari o'rtasida iqtisodiy rivojlanish darajasi, ishlab chiqarish hajmi va infratuzilma imkoniyatlari bo'yicha sezilarli tafovutlar mavjud. Bu esa ayrim hududlarda ish o'rinlarining yetishmovchiligiga olib kelib, ishsizlik darajasining oshishiga sabab bo'lmoqda.

Toshkent shahri va yirik sanoat markazlari (Navoiy, Angren, Olmaliq, Chirchiq) iqtisodiy jihatdan rivojlangan bo'lib, u yerda ish topish imkoniyatlari nisbatan yuqori. Buxoro, Xorazm, Qoraqalpog'iston kabi hududlarda iqtisodiy faollik sustroq bo'lib,

⁶ O'ZBEKISTONDA ISHSIZLIKNING SABABLARI VA YECHIMLARI. (2023). O'ZBEKISTONDA ISHSIZLIKNING SABABLARI VA YECHIMLARI. International journal of education, social science & humanities. finland academic research science publishers, 11(6), 1163–1173. <https://doi.org/10.5281/zenodo.8076957>

ayniqsa, sanoat va xizmat ko'rsatish sohalari yetarlicha rivojlanmagani sababli ish o'rinlari kamroq. Tog'li va chekka hududlarda ishlab chiqarish va xizmat ko'rsatish tarmoqlari deyarli rivojlanmagan, bu esa ishsizlikning yuqori darajada bo'lishiga sabab bo'lmoqda.

O'zbekiston aholisi asosan qishloq joylarida istiqomat qiladi, lekin qishloq xo'jaligida bandlik daromadlar nuqtai nazaridan yetarlicha barqaror emas. Ko'plab yoshlar qishloq hududlarida ish topa olmagani uchun yirik shaharlarga yoki xorijga mehnat migratsiyasiga chiqishga majbur bo'lmoqda. Sanoat va xizmat ko'rsatish sohalari asosan yirik shaharlar atrofida rivojlangan bo'lib, qishloq aholisiga mos ish o'rinlari yetarli emas.

So'nggi yillarda O'zbekistonda ishsizlikni kamaytirish uchun bir qator dasturlar amalga oshirildi:

1. Yangi ish o'rinlarini yaratish.

O'zbekistonda ishsizlikni kamaytirishning eng muhim yo'nalishlaridan biri yangi ish o'rinlarini yaratish hisoblanadi. So'nggi yillarda mamlakatimizda mehnat bozorini rivojlantirish, aholi bandligini oshirish va ishsizlikni pasaytirish maqsadida qator islohotlar amalga oshirildi. Hukumat tomonidan yirik investitsion loyihalar amalga oshirilmoqda, yangi ishlab chiqarish korxonalari ochilmoqda va tadbirkorlikni rivojlantirishga katta e'tibor qaratilmoqda. Birgina 2023-yilda O'zbekistondagi mehnat resurslari 19,7 million kishini tashkil etdi, bu 2022-yilga nisbatan 400 ming kishiga oshgan. Undan tashqari, shu yilda mamlakat bo'ylab 1,2 milliondan ortiq yangi ish o'rinlari yaratildi, shundan 450 mingdan ortig'i xususiy sektor hissasiga to'g'ri keladi.[4]

O'zbekistonda avtomobilsozlik, energetika, neft-gaz va qurilish sanoati kabi yirik sohalarda yangi ishlab chiqarish obyektlari ochilib, ko'plab ish o'rinlari yaratilmoqda. 2023-yilda "BYD" va "Chery" kabi xorijiy avtomobil kompaniyalari bilan hamkorlikda yangi zavodlar qurilib, 10 mingdan ortiq yangi ish o'rinlari yaratildi. Gazni qayta ishlash va qayta tiklanuvchi energiya loyihalari doirasida 20 mingdan ortiq mutaxassis ish bilan ta'minlandi.

Hukumat tadbirkorlikni qo'llab-quvvatlash uchun soliq imtiyozlari, kreditlar va subsidiya dasturlarini joriy qilmoqda. Xususan, davlat tomonidan tadbirkorlarni qo'llab-quvvatlash dasturlari doirasida 2023-yilda 110 mingdan ortiq yangi biznes subyektlari tashkil etildi. "Tadbirkorlikni rivojlantirish milliy dasturi" orqali 30 mingdan ortiq startap loyihalariga moliyaviy ko'mak berildi. Davlat tomonidan xususiy sektor uchun maxsus soliq imtiyozlari berilib, 60 mingdan ortiq ish joyi yaratildi.

O'zbekiston fuqarolarining xorijda rasmiy mehnat faoliyatini yuritish imkoniyatlarini kengaytirish ishsizlikni kamaytirishda muhim rol o'ynaydi. 2023-yilda 250 mingdan ortiq fuqaro rasmiy ravishda chet elga ishlash uchun yuborilgan. Rossiya, Janubiy Koreya,

Yaponiya va Yevropa mamlakatlari bilan mehnat shartnomalari tuzilgan. "Migratsiya markazlari" orqali ishga ketayotgan fuqarolarga huquqiy va kasbiy tayyorgarlik berilmoqda.

2. Ta'lim tizimini isloh qilish.

O'zbekistonda mehnat bozorining talablariga mos keladigan malakali kadrlarni tayyorlash muhim ahamiyatga ega. So'nggi yillarda ta'lim tizimini isloh qilish va yoshlarni zamonaviy kasblarga yo'naltirish bo'yicha bir qancha muhim chora-tadbirlar amalga oshirilmoqda.

1) Oliy ta'lim bilan bir qatorda, kasb-hunar ta'limi ham ishsizlikni kamaytirishda asosiy omillardan biridir. 2023-yilda kasb-hunar markazlarida 250 mingdan ortiq yoshlar kasbiy ta'lim oldi. Yangi IT akademiyalar va muhandislik o'quv markazlari tashkil etilib, yoshlarning raqamli texnologiyalar va muhandislik sohalariga yo'naltirilishi kuchaytirildi. Kasbiy qayta tayyorlash dasturlari orqali ishsiz fuqarolarni talab yuqori bo'lgan kasblarga o'qitish yo'lga qo'yildi.

2) Oliy ta'lim tizimi ham zamonaviy talablar asosida rivojlantirilmoqda. O'zbekistonda 2023-yilda 35 mingdan ortiq talaba IT va muhandislik yo'nalishlarida ta'lim oldi. "Kasblar va hunarlar yarmarkalari" tashkil etilib, talabalar va ish beruvchilar o'rtasida muloqot yo'lga qo'yildi. Xalqaro universitetlarning filiallari ochilib, yoshlarning zamonaviy kasblarni o'rganish imkoniyati kengaytirildi.

3) Mehnat bozori tez o'zgarayotgan sharoitda, malakali kadrlarni tayyorlash doimiy ravishda takomillashtirilishi zarur. Texnik mutaxassislar, dasturchilar va muhandislarning yetishmovchiligi sababli maxsus qayta tayyorlash kurslari yo'lga qo'yildi. O'zbekistonda 2023-yilda 50 mingdan ortiq ishsiz fuqarolar kasbiy qayta tayyorlash kurslarida qatnashdi. "Raqamli O'zbekiston – 2030" dasturi doirasida aholini IT sohasiga o'qitish uchun davlat va xususiy sektor hamkorlik qilmoqda.

3. Qishloq hududlarida bandlikni oshirish.

O'zbekistonda qishloq joylarida ishsizlik darajasi shaharlarga nisbatan yuqoriroq bo'lib, bu hududlarda aholi bandligini oshirish dolzarb masalalardan biridir. Mamlakat iqtisodiyotining qariyb 45% qismi qishloq xo'jaligi bilan bog'liq, lekin so'nggi yillarda sanoat va xizmat ko'rsatish tarmoqlariga o'tish sust kechmoqda. Shu sababli, qishloq hududlarida bandlikni oshirish bo'yicha qator chora-tadbirlar amalga oshirilmoqda.

Qishloq joylarida ishsizlikni kamaytirishning muhim yo'llaridan biri tadbirkorlikni rivojlantirishdir. Davlat tomonidan kichik biznes va hunarmandchilikni qo'llab-quvvatlash maqsadida bir qator dasturlar amalga oshirilmoqda:

- "Har bir oila – tadbirkor" dasturi doirasida 2022-2023-yillarda 150 mingdan ortiq oilaga tadbirkorlik bilan shug'ullanish uchun imtiyozli kreditlar ajratildi;
- Qishloq hunarmandchiligi va oilaviy biznesni rivojlantirish uchun 2023-yilda 5 mingdan ortiq yangi kichik biznes subyektlari tashkil etildi, bu esa ayniqsa ayollar va yoshlar bandligini oshirishga xizmat qildi;
- "Ayollar tadbirkorligini rivojlantirish" dasturi doirasida 40 mingdan ortiq ayol ish bilan ta'minlandi.

Xulosa va takliflar

O'zbekistonda ishsizlik darajasi so'nggi yillarda pasayib borayotgan bo'lsa-da, u hali ham mamlakat iqtisodiyotidagi dolzarb muammolardan biri hisoblanadi. Ishsizlikning friksion va tarkibiy turlari mavjud bo'lib, texnologik o'zgarishlar, demografik omillar va mintaqaviy tafovutlar uning darajasiga ta'sir ko'rsatmoqda. Hukumat tomonidan bandlikni oshirish, yangi ish o'rinlarini yaratish, tadbirkorlikni rivojlantirish va ta'lim tizimini modernizatsiya qilish bo'yicha keng ko'lamli islohotlar amalga oshirilmoqda. Ishsizlikni kamaytirish mamlakat iqtisodiy barqarorligi va aholi turmush darajasini oshirish uchun muhim ahamiyatga ega. . Yuqoridagilardan kelib chiqib shuni aytib o'tish joizki, sohaning yana takomillashi uchun quyidagi takliflarni keltirib o'tish lozim.

Kasb-hunar ta'limini kengaytirish. Ish beruvchilar talab qiladigan kasblar bo'yicha qisqa muddatli o'quv kurslarini joriy etish kerak. Masalan, dasturlash, muhandislik, IT-texnologiyalar, marketing va servis sohaları bo'yicha amaliy mashg'ulotlar tashkil etish foydali bo'ladi.

Qishloq xo'jaligiga asoslangan sanoatni rivojlantirish. Fermerlik mahsulotlarini qayta ishlash, agroturizm va ekologik toza mahsulotlar ishlab chiqarishni kengaytirish orqali yangi ish o'rinlari yaratish mumkin.

Tadbirkorlik ekotizimini rivojlantirish. Ishsizlikka qarshi kurashda tadbirkorlikni qo'llab-quvvatlash eng samarali usullardan biri hisoblanadi. Shu sababli, kichik va o'rta biznes uchun soliq imtiyozlarini kengaytirish, biznesni ro'yxatdan o'tkazish jarayonlarini soddalashtirish va moliyaviy ko'mak dasturlarini joriy etish zarur.

Masofaviy ishlash imkoniyatlarini kengaytirish. IT-sohasidagi bandlikni oshirish uchun dasturlash, grafik dizayn, tahlil va masofaviy xizmatlar sohalarida ish o'rinlarini yaratish zarur.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. T. T. Jo'rayev, M. A. Hamdamov. Iqtisodiyot nazariyasi. (Darslik). «Fan va texnologiyalar nashriyot-matbaa uyi», 2024
2. O'zbekiston Respublikasining "Aholini ish bilan ta'minlash to'g'risida"gi Qonuni (Yangi tahriri) Toshkent, 1998 y.
3. Musurmankulova, G. (2024). O'ZBEKISTONDA ISHSIZLIKNI KAMAYTIRISH YO'LLARI. B TAFU (T. 4, Выпуск 7, ss. 550–554). Zenodo
4. <https://stat.uz>
5. <https://uz.wikipedia.org/wiki/Ishsizlik>
6. O'ZBEKISTONDA ISHSIZLIKNING SABABLARI VA YECHIMLARI. (2023). O'ZBEKISTONDA ISHSIZLIKNING SABABLARI VA YECHIMLARI. International journal of education, social science & humanities. finland academic research science publishers, 11(6), 1163–1173. <https://doi.org/10.5281/zenodo.8076957>

